



ZULFIYA KUROLBOY'S DAUGHTER'S PORTRAIT MAKING SKILLS

Khurshidbek Odilov

master's student

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: portrait painting, writing skills, human destiny, character creation through appearance.

Received: 28.06.22

Accepted: 30.06.22

Published: 02.07.22

Abstract: The article analyzes the issues of portraiture, writing skills, the fate of a person, creating an image through the image of Zulfiya Kurolboy kyz.

ZULFIYA QUROLBOY QIZINING PORTRET YARATISH MAHORATI

Xurshidbek Odilov

magistrant

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: portret, yozuvchi mahorati, inson qismati, tashqi qiyofa orqali xarakter yaratish masalasi

Annotatsiya: Maqolada Zulfiya Qurolboy qizi ijodida portret, yozuvchi mahorati, inson qismati, tashqi qiyofa orqali xarakter yaratish masalalari tahlil etiladi

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ПОРТРЕТА ДОЧЕРИ ЗУЛЬФИИ КУРОЛБОЙ

Хуришидбек Одилов

магистрант

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: портретная живопись, писательское мастерство, человеческая судьба, создание характера через внешность.

Аннотация: В статье анализируются вопросы портретной живописи, писательского мастерства, судьбы человека, создания образа через образ Зульфии Курулбой кызы.

KIRISH

Zulfiya Qurolboy qizi ijodi bo'yicha professor U.Normatov o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. U.Normatov yozuvchining "Mashaqqatlar girdobi" romanini haqida shunday deydi: "Mashaqqatlar girdobi" romanida ayni shu girdobga tushib qolgan yurtdoshlarimizning aqli bovar qilmaydigan ko'rgiliklari, odam qiyofasini yo'qotgan maxluqlarning mislsiz shafqatsizliklari haqida hikoya qilinadi. Xuddi ertak sarguzashtlarini eslatadigan real hayotiy hodisa-voqealar o'quvchini larzaga soladi, chuqur alamli mushohadalarga toldiradi. Asarning eng muhim, benihoya ibratli, yorqin jihatni shundaki, ana shu girdob zulmati iskanjasida o'zligini, asl insoniy fazilatlarini yo'qotmagan zulmatni yoritishga, uning temir qafaslarini yorib chiqishga, yonib, tutqunlik azoblariga ko'nikkan g'aflat bandalarini uyog'otishga qodir asl insonlar ham bor. Asardagi ana shunday kuchlarning oldingi safida turuvchi yorqin siymo tarzida gavdalananadi.

ASOSIY QISM

Yozuvchi bu ayolni personajlardan birining so'zlarini bilan "ezgulik va yorug'lik farishtasi" deb ataydi. Darhaqiqat, bu farishta ayol asarlarda paydo bo'lishi bilan zulm va zulmat maskanida bamisolni ziyo chaqnaydi, ketma-ket davom etgan mashaqqatlar, zo'ravonliklar silsilasiga darz ketadi, voqealar ijobiy o'zgarishlar tomon yuz o'giradi, qahramonning o'z so'zlarini bilan aytganda, "o'z atrofida butunlay boshqacha atmosfera yaratish" ga erishadi; uning yangidan-yangi xislatlari namoyon bo'la boradi. Bu hamshira ayolning nafaqat ninasi, balki tili ham o'tkir, sanchgan joyidan qon chiqarmasa, qo'ymaydi. Zulmat maskanidagi shikoyat qilish va ovqatlanishdan boshqasini bilmaydigan yig'loqi ayollar qarshisida u butunlay boshqacha, betakror go'zal, sodda va yoniga yo'llab bo'lmaydigan darajada mag'rur. Tutqunlar orsida o'zini ruhan tutqun hisoblamaydigan, tushkunlikka berilmaydigan birgina inson shu Gulruhning o'zi! Uni yo'ldan ozdirmoqchi bo'lgan, jamiki ezgu maqsadlariga qarshi turgan ashaddiy raqibi ham oxiri uning oldida ruhan taslim bo'ladi. Buning guvohi bo'lgan hikoyachi-qahramon beixtiyor "gul yaprog'idagi shudringday pokiza, bokira, oliy maqsad yo'lida hech qanday to'siqni pisand qilmaydigan bunday oqila ayolni uchratmagandim" deya hayajonini yashirmaydi.

Bu benazir mardona hamshira ayol shijoat tufayli ajal yoqasida ingrab yotgan bemor hayotga qaytadi, ashaddiy zolim ustamon firibgar shashtidan tushadi, g'aflat bandalari xushyor tortadi, nixoyat, o'zi ham, yaqinlari ham qullik iskanjasidan xalos etiladi. Asar baxtli xotima bilan yakunlanadi. Ikki sevishgan yosh-hikoyachi qahramon Davron bilan unga taqdirdosh Gulruh ko'p ko'rgulik poyonida ona yurtiga qaytib, shu tabarruk zaminda chin baxtini topadi.

Ehtimol, ayrim o'quvchilarga qahramon shijoati bir oz oshirib yuborilgandek, baxtli esa ertaklardagidek silliq kechgandek, oldinda ham yangi to'siq borligiga loaqal imo-ishora ham

yo‘qdek tuyular ... Asarda goho favqulotda xodisalarga mahliyolik, voqeanavislik ustunlik qilib ketgan o‘rinlar uchraydi. Nima bo‘lganda ham ayni shunday romantik ruhdagi yoshlar uchun ham ibrat, ham saboq bo‘la oladi, qahramonlarga ehtiyoj, tashnalik nihoyatda katta edi. Zulfiya qizimizning shunday tashnalikni muayyan darajada qondirishga intilishning o‘ziyoq tahsinga loyiq[1].

“Rashk” hikoyasi esa o‘ziga xos uslub, o‘ziga xos mavzu doirasi bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Asar qahramoni portreti ikki xil ko‘rinishda tasvirlanadi Biroq, asosiy urg‘u uning keyingi hayotidagi portretiga beriladi. Chunki Xosiyatning portreti asarni mavzu va g‘oyasini ochib berishga harakat qiladi. Chunki er kishini o‘zgarishida nafaqat go‘zallik, odob-ahloq birinchi planga ko‘tarilishi kerak. Biroq Xosiyat oilasini, ro‘zg‘orini saqlab qolishi uchun go‘zallik kerakligini xis qilmaydi. Aksincha, tinimsiz erini rashk qiladi. Bu hol erni oiladan, Xosiyatdan uzoqlashtiradi. Natijada, er bor diqqat e’tiborini boshqa ayol bilan Xosiyatni solishtirishga qaratadi. Quyidagi parchada Xosiyatning tashqi qiyofasi shunday chiziladi.

“Xosiyat kelin ozib ketdi, yanoq suyakalri turtib chiqadi, yuziga ajin tushdi, negadir chakka sochlari erta oqara boshladi. Avvalgi nazokatlaridan-ku, asar ham qolmagandek”

Rashk hikoyasining qahramoni Xosiyatga berilgan ushbu tarif uning asarda uchraydigan yagona ko‘rinishi, tasviri emas. Dastlab asar boshida u yangi en yetti yoshli kelinchak sifatida judayam go‘zal tasvirlangan edi. Lekin unga berilgan asosiy portretda u keyinchalik o‘zgarib ketgani, faqat ona, uy bekasi sifatidagina yashab ayol sifatida o‘ziga e’tibor bermay qo‘yganini tushunib olishimiz mumkin. Uni bunday holatga kelib qolishiga sabab nima? Bu hol uning bee’tibor, loqaydligidanmi, yoki bunday o‘zgarishiga uni turmush majbur qildimi? Erta-yu kech tinmaydigan uy-yumushlarining barchasini o‘z zimmasiga olgan, tong sahardan sigir sog‘gan, ekin ekkan, tappi tayyorlagan, vaqtini pulini o‘zidan qizg‘onadigan bu ayolning tushunchasi o‘ziga qarab, pardoz bilan yurib ish qilishi foydasiz, o‘ziga ep ko‘rmaydi. Uning bu holatiga oilasining boshqa a’zolari ham ko‘nikkan faqat erigina bu o‘zgarishlarni qabul qilolmaydi. Oqibatda boshqa ayolga e’tibor berib, o‘z xolicha Xosiyat va o‘sha ayolni solishtira boshlaydi. Portretda ayolni bunday qiyofasini mahorat bilan tasvirlaydi. O‘quvchini ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Bunday ayollar hayotda ko‘plab uchraydi. Bu holga tushishlrida balki ularning aybi yo‘qdir, lekin ko‘p hollarda pand yeb qoladilar.

“To‘xtab qolgan vaqt suvratlari” hikoyasida yozuvchi portret yaratishda boshqa asarlardan farqliroq bayon qiladi. “Norbuvi endi o‘ttiz birga kirgan. Ammo mudom sal qaddini bukib yuradigan bu ayolning ajin bosgan horg‘in chehrasiga kamida qirq- besh ellikni beraverish mumkin edi. Bir vaqlar taqimini o‘pgan qalin sahlari to‘kilaverib boshiga yopishib qolgan; yuz

suyaklri turtib chiqqan, ikki yanog‘ida chuqurcha mhosil bo‘lgan; kirtaygan ko‘zlar tez-tez yoshlanib turadi; ozg‘inligidanmi ikki yelkasi turtib chiqqandayegnida esa doim uniqqan satin ko‘ylak”

Bu portret “To‘xtab qolgan vaqt suvratlari “hikoysining qahramonlaridan biri Norbuvining tasviridir. Bu obraz to‘xtab qolgan vaqt su’ratida jonlanolmay, xatto bunga harakat ham qilmay bir qishlik o‘zbek ayolining siymosidir. Shuning tashvishi ko‘plab ayollar singari ro‘zg‘or tashvishlarini asosiy hayot tarziga aylantirib olgan. Tinmay ishlaydi—dalada, uyda, partiyada. Muhammi qozon qaynashi, ovqat, ozuqa bo‘lishidir. Bor urinish, ter to‘kishlarning sababi ham faqat shu uchun deb fikrlaydi. Bu ayol xatto dostayevskiy kimligini bilaydi, umrida eshitmagan. Huddi ibtidoiy davrdagi hayotni eslatadigan bu qishloqda vaqt to‘xtabqolganini turmushlari birxillikdan iboratligini sezmay yashaydigan insonlar ko‘p. bunday turmush tarzi Norbuvi va unga o‘xhash ko‘plab ayollarni shu ko‘rinishga keltirib qo‘yan. Muallif endigina o‘ttiz yoshli ayolni qirq besh yoshdagidek ko‘rinishiga sabab bo‘lgan voqe va yumushlarni avval uning portreti orqali ifodalab, so‘ngra o‘quvchini mulohaza yuritishga undaydigan turmush tarzini ifodalab beradi. Bu portret va voqealar orqali muallif ayollarni o‘zini anglashga, dunyonni tanishga, fikr erkinligiga undaydi.

Adiba Zulfiya Qurolboy qizi o‘z asarlarida qahramonlar qiyofasini yaratishda ularga tabiat baxsh etgan barcha fazilatlarni, go‘zallikni his ettiradi, ularni estetik zavqlantiradi. Inson bilan tabiat o‘rtasidagi bofqqliqlikni yozuvchi ham ijobjiy, ham salbiy qahramonlar orqali aniqlashtiradi. Mehnat kishisining ma’naviy boy, zavqli, ta’sirchan, go‘zallikni chuqur his etuvchi qilib ko‘rsatish, uning tabiatga yaqinligini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

XULOSA

Demak, inson o‘zini o‘rab turgan muhitdan ajralgan holda yashamas ekan. U muhit bilan munosabatga kirishadi, undan ta’sirlanadi, unga moslashadi va ta’sir ham qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Normatov U. Nafosat gurunglari. Toshkent. 2010 yil. 297-bet.
2. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS “THE PICTURE OF DORIAN GRAY” AND “THE MAN AT THE MIRROR”. Theoretical & Applied Science, (5), 590-592.
3. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. Scientific journal of the Fergana State University, 1(3), 111-112.
4. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT’S NOVEL “MASHRAB”. In Конференции.

5. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
6. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
7. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
8. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
9. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
10. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
11. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
12. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.
13. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
14. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
15. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
16. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
17. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
18. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In Конференции.
19. Abdurashidovich K. A. Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2018. – Т. 7. – №. 4. – С. 47-51.

20. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 235-240.
21. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук, (2), 85-89.
22. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
23. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
24. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.
25. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
26. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
27. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. Иттернаука, (15-3), 75-76.
28. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. Scientific journal of the Fergana State University, 2(2), 77-81.
29. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЙРДА БАДИЙ МАКОН МУАММОСИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).
30. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel " Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. International Journal on Integrated Education, 3(11), 183-186.
31. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In Конференции.
32. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative “Saraton” by N. Fozilov. Scientific journal of the Fergana State University, 1(4), 104-105.

33. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY “TWICE TWO IS FIVE”. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
34. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK’S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
35. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
36. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
37. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.